

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
11	60711000	Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha)	+		Muxandis-energetik
Yo'nalish tavsifi					
<p>Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha) - muqobil va qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi mavjud energetik qurilmalar, texnologiyalar va ularning ish jarayonini avtomatlashtirish, loyihalash uchun zarur jihozlarni tanlash, montaj qilish, sozlash va ishlatish, ishlab chiqarish bilan bog'liq kompleks masalalar va ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat olib borish qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi. Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat - quyosh, shamol, geotermal elektr stansiyalari, vodorod va bioyoqilg'ilar (qattiq, suyuq, gazsimon) olish jarayonlarida faoliyat yuritish va ularning asosiy, butlovchi jihozlarini loyihalash, montaj qilish, sozlash va ishlatish; muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalar va shu sohaga tegishli bo'lgan ob'ektlarni qurishda va ishlatishda mutaxassis, muhandis-texnolog, bolim boshlig'i va energetik lavozimlarida ishlash; iqtisodiyot real sektorida muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalar va ularga butlovchi uskunalarni ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini tashkil etish, sohada tadbirkorlik, tijorat va biznes yuritish faoliyatini olib borish texnikumlarda pedagogik faoliyatini olib borish; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati; texnikumlarda pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda); turli xizmatlar ko'rsatish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.</p>					